

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO'LIMI
XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**


**XORAZM MA'MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnomma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo'jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2024-6/1
Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

| | |
|---|-----|
| Yulchiyeva S.A., Melanova N.R. Ananas o'simligini in vitro usulida o'stirishda fitogormonlarning ta'siri | 106 |
| Yuldasheva N.A. O'zbekiston florasi va uning fasllar davomida o'zgarishi | 109 |
| Абдуллаева С., Ганджаева Л. Влияние температуры на поведение клопов рода <i>Pyrrhocoris</i> Fallén, 1814 | 111 |
| Арепбаев И.М. Қорақалпоғистонда кичик оққушнинг (<i>Cygnus bewickii</i> Yarrell, 1830) учраши ҳақида янги маълумотлар | 114 |
| Бобоназарова Н., Ганджаева Л. Экологические особенности <i>miridae</i> | 117 |
| Мажидова Д.З., Элмуратова З.У. Жанубий Ўзбекистон ғўза агроценози тупроқорибатид каналарнинг мавсумий динамикаси ва тур таркиби | 119 |
| Мамутов Н.К., Утениязова У.Ж. Современное состояние флоры и растительности тугаев дельты Амударьи в условиях сокращенного речного стока | 123 |
| Мардонов Ш.У., Мустафаев И.М., Жўракулов Ж.Ж. Боботоғ тизмасидаги <i>pistacia vera</i> L. – хандон писталарда учрайдиган патоген замбуруғлар ва уларнинг тарқалиши | 126 |
| Оразбаева Н. М. Возрастные и адаптивные изменения показателей системы дыхания у детей в условиях Республики Каракалпакстан | 129 |
| Паттаева М.А., Бахромова Г.Х., Расулов Б.А. <i>Azotobacter chroococcum</i> XH2018 штамми билан озиқлантирилган ғўзада хлорофиллар ва каротиноидлар синтези | 134 |
| Расулов Б.А., Паттаева М.А., Бахромова Г.Х. ЭПС-биоматериали ва ЭПС-синтезловчи штаммлар билан биологик ишлов берилганда айрим ғўза навларида морфологик ўзгаришлар | 136 |
| Самандаров О.К., Нуриров Б.Ж., Орынбаев Д.Ж., Алламуратов Б.Дж. Шимоли-ғарбий қизилқумда катта қумсичконнинг (<i>Rhombomys opimus</i> Licht 1823) наслдорлик кўпайиш потенциали, эпизоотологик аҳамияти | 140 |
| Сотиболдиева Д.И., Амонидинова Ф.А., Ҳазратқурова Д.О., Махкамов Т.Х. Зарчава (<i>Curcuma longa</i> L.) нинг ўсиши ва ҳосилдорлигига қаламчалар ҳажмининг ва экиш схемасининг таъсири | 144 |
| Султансуйнов А.С., Турдымуратов Ж.А. Физиологические особенности и развитие мышечных сил у юных спортсменов | 148 |
| Хайтбаева Н.С., Отажанов А.А. Тошкент, Сирдарё, Жиззах вилоятларида қовун (<i>cucumis melo</i>) экилган далаларнинг тупроқ микрофлораси | 152 |
| Хожамкулова Ю.Ж., Қашқабоева Ч.Т., Ибрагимов Ф.Ю. Шолининг “Садаф” навини барг таркибидаги хлорофилл “а”, “б” ва каратиноид микдори | 161 |
| Шарипов А.Э., Ибрагимов А.Ж., Аромов Т.Б. Тожик ковраги (<i>Ferula tadshikorum Pimenov</i>) бўйича яратилган мобил илова тўғрисида | 164 |
| Элмуратова З.У., Мажидова Д.З. Ўзбекистоннинг шимолий худудлар агроценозлари коллемболалари тур таркиби | 167 |
| QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI | |
| Abdraxmonov T., Normurodova Q.T., Karimboyeva M.Q. Mo'ynoq tumanining qurg'oqlanish indeksi | 172 |
| Baboyev S.K., Mamatova M.A. Donli mahsulotlar yetishtirish jarayonida klekovina oqsilining organizmdagi o'rni | 176 |
| Faxrutdinov M.Z., Raimova D.R., Jo'raev S.T. Limonning vitaminga boy mahalliy navlarini yaratish samaradorligi | 181 |
| Hamroyeva M.K., Nomozov R., Kadirova G., Sherpo'latova Sh. Burchoqdoshlar oilasiga mansub introduktsiya qilingan o'simlik turlarining amaliy ahamiyati | 183 |
| Hamroyeva M.K., Xamrayev O., Kadirova G., Xolbozorova M. Soya o'simligining ahamiyati va xarakteristikasi | 188 |
| Ibragimov B.B., Yunusov X.B., Ermatov Yu.A., Djambilov B.X. Turli yosh va zotdagи quyonlar spermasi tarkibida spermatozoidlar konsentratsiyasi | 190 |
| Ismoilov K.T., Aliyev D.D., Muxitdinov Sh.M. Cho'l (Qashqadaryo) va tog' (Samarqand) tabiiy ekologik hududlaridagi sur qorako'l qo'zilarining mutlaq va kunlik o'sish ko'rsatkichlari | 193 |



2-rasm. Ananas meva tojlarining 6 xtaftadan keying xolati: A.. 3.00 mg / L BAP va 1.00 mg / L NAA bilan to'ldirildi. B. 3.00 mg / L BAP va 2.00 mg / L NAA bilan to'ldirildi. C. 7.00 mg / L BAP va 1.00 mg / L NAA bilan to'ldirildi. D. garmonsiz ozuqa

Ananas meva tojlarini adaptatsiya xonasida $24 \pm 2,0^{\circ}\text{C}$ haroratda 16/8 soat yorug'lik ostida saqlandi. Ananas o'simliklarining o'sishi kuzatildi va har bir eritmadagi kurtaklar soni va o'sush ko'rsatgichlari bo'yicha ma'lumotlar yig'ib borildi. Bu o'simlik dastlabki ildizlar hosil bo'lgandan sunq tuproqqa olib o'tildi va issiqxonada adaptatsiya boshqishi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Botella, J.R., Fairbairn, D.J. (2005). Present and Future Potential of Pineapple Biotechnology. *Acta Horticulturae* 666: 312-318.
2. Chan, Y.K. (2006). Hybridization and selection in Pineapple Improvement: The experience in Malaysia. *Acta Horticulturae* 702: 87-92.
3. Kuan, C.S., Yu, C.W., Lin., Hsu,H.T. (2005). Foliar application of aviglycine reduces natural flowering in pineapple. *HortScience* 40:123-126
4. Mateljan, G. (2007). The Worlds Healthiest foods. Mateljan, G (eds). United States, Seattle WA
5. Trusov, Y., Botella, J.R. (2006). Delayed flowering in pineapples caused by Co-Suppression of the ACACS2 Gene. *Acta Horticulturae* 702: 29-35.

UO'K 581.9(575.1)

O'ZBEKİSTON FLORASI VA UNİNG FASLLAR DAVOMIDA O'ZGARISHI

N.A.Yuldasheva, o'qituvchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq

Annotatsiya. Floristika — botanikaning bir bo'limi bo'lib, yer yuzidagi yoki uning bir qismidagi o'simlik turlari majmuini o'rganadi. Flora ma'lumotlaridan o'simlik turlari yoki boshqa taksonomik guruhlar areallarini aniqlashda foydalaniladi. Flora botanikaning sistemmatika, geobotanika, poleobotanika va boshqa bo'limlari bilan chambarchas bog'langan.

Kalit so'zlar: floristika, flora, tur, to'r tizimli xaritalash, o'simliklar taksonomiyasи, endem tur, gerbariy fondi.

Аннотация. Флористика — раздел ботаники, изучающий совокупность видов растений на Земле. Информация о флоре используется для определения ареалов видов растений или других таксономических групп. Флора тесно связана с систематикой, геоботаникой, палеоботаникой и другими разделами ботаники.

Ключевые слова: флористика, флора, виды, картографирование сеточной системы, систематика растений, эндемичные виды, гербарный фонд.

Abstract. Floristics is a branch of botany that studies the set of plant species on Earth or part of it. Flora information is used to determine the areas of plant species or other taxonomic groups. Flora is closely connected with systematics, geobotany, paleobotany and other departments of botany.

Keywords: floristry, flora, species, grid system mapping, plant taxonomy, endemic species, herbarium fund.

Tadqiqot metodlari. O'zbekiston florasida 4300 ga yaqin yuksak o'simlik turlari mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi foydali o'simliklar hisoblanadi. Masalan, oziq ovqat o'simliklari 42 turni, ozuqabop (yem hashak) o'simliklar 107 turni, dorivor o'simliklar 113 turni, alkaloid saqlovchi o'simliklar 76 turni, saponin saqlovchi o'simliklar 15 turni, efir moyli o'simliklar 53 turni, yog' to'plovchi o'simliklar 56 turni, tannid saqlovchi o'simliklar 59 turni, bo'yoqbop o'simliklar 58 turni, kamed saqlovchi o'simliklar 9 turni, smola saqlovchi o'simliklar 9 turni, mum saqlovchi o'simliklar 5 turni, kauchuk saqlovchi o'simliklar 4 turni, selluloza qog'ozbop o'simliklar 14 turni, yog'och beruvchi o'simliklar 16 turni, ziynat (bezak) uchun foydalaniladigan o'simliklar 30 turni, asal shira beruvchi o'simliklar 115 turni o'z ichiga oladi.[3,7,10].

Ushbu fan floramizda uchraydigan dorivor o'simliklarning morfologik tuzilishini, hayotiy shakli, yer sharida tarqalish qonuniyatlarini, sistematikasini, bioekologiyasi, geografiyasini, geobotanika va uning vazifalarini, O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan dorivor o'simlik turlarni asrash va ulardan oqilona foydalanish kabi masalalar atroflicha o'rghanadi. Fan tabiat va jamiyatning ekologik negizi, tarkibiy qismlari, jarayonlarning mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning amal qilish qonuniyatlarini, ekologik muammolarni kelib chiqish sabablarni qamrab oladi.[3,5,8].

Floristik tadqiqotlar hozirgi davrning global muammosini – biologik xilma-xillikni o'rghanish va saqlashni amalga oshirishning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ushbu muammoning yechimi atrof-muhitga antropogen ta'sir kuchayib borishi munosabati bilan o'simliklarning hozirgi holati to'g'risida ilmiy asoslangan ma'lumotlarni olish zarurati bilan asoslanadi. O'rta Osiyo tog'larida olib borilayotgan keng ko'lamli floristik tadqiqotlar fan uchun qiziqarli bo'lgan yangi kashfiyotlar qilish imkonini beradi. [4,7].

O'zbekiston hududida barqaror havo haroratining ko'tarilishini ko'rsatmoqda. Isishning o'rtacha tezligi 1950 yillardan buyon respublikada global isish tempidan ikki barobar ko'p, ya'ni har o'n yillikda $0,29^{\circ}\text{C}$ tashkil etgan. Iqlim o'zgarishining yaqqol hududiy o'zgarganlik ko'rsatkichi sifatida kontenintallikning kuchayishi, ya'ni issiq va sovuq kunlar o'rtasidagi tafovutlarning ortishini olish mumkin. Masalan, Orolbo'yida 40°C oshgan kunlar 2 barobarga, O'zbekistonning boshqa hududlarida esa o'rtacha bir yarim barobarga ortgan. Respublikamizning barcha hududlarida 2007 yilning anomal sovuq qishiga qaramasdan past darajali kunlarni kamayishi qayd qilindi. [11]

Atmosferaga yil davomida chiqariluvchi birikmalar

| Birikmalar | Chiqarilishi, mln.t | | Antropogen chiqindilarning hissasi, % |
|-------------------------------|---------------------|------------|---------------------------------------|
| | Tabiiy | Antropogen | |
| Qattiq zarrachalar | 3700 | 1000 | 27 |
| SO | 5000 | 308 | 5,8 |
| C _n H _m | 2500 | 87 | 3,3 |
| NO _x | 770 | 55 | 6,8 |
| SO _x | 652 | 103 | 13,3 |
| CO _x | 473000 | 18300 | 3,7 |

Iqlim o'zgarishi o'z navbatida O'zbekistonda yil fasllarining o'zgarishiga, bu o'zgarishlar esa mamlakatimiz florasing o'zgarishiga ham olib keladi.

O'zbekiston o'simliklar dunyosi xilma-xil bo'lib, xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti (Botanika ilmiy-ishlab chiqarish markazi)da olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, o'lkada 166 oilaga mansub 4500 ga yaqin yuksak o'simlik turlari borligi ma'lum bo'ldi. Bularning aksariyat qismini *qoqio'tdoshlar* (260 ga yaqin tur) *karamdoshlar*, *yalpizdoshlar*, *sho'radoshlar*, *loladoshlar*, *chinniguldoshlar*, *yoronguldoshlar*, *govzabondoshlar*, *ra'nodoshlar* kabi yirik oilalarning vakillari tashkil etadi.

O'zbekiston florasi uzoq tarixga ega. Paleobotanik tadqiqotlar respublika hududida quruqlikdagi yuksak o'simliklarning (ksilofitlardan tortib) barcha evolyutsion davrlarga oid o'simlik qoldiqlari borligini ko'rsatdi. Hatto hozirgi Qizilqum cho'llaridan bir vaqtlar bu yerlarda o'sgan xurmo, chinor, terak kabi daraxt va butalarning qoldiqlari topilgan.

O'zbekistonda o'simliklar o'smaydigan joy yo'q. Ularni tekislikdagi qumli cho'llardan tortib, qorli baland tog'larga bo'lgan turli rel'yef va tuproq sharoitida uchratish mumkin. O'zbekiston

o'simliklarning tarqalishini yoritish uchun tavsiya etilgan 4 tik (vertikal) mintaqqa (cho'l, adir, tog', yaylov) asos qilib olindi. Har bir mintaqqa o'ziga xos rel'yef, iqlim, tuproq va o'simliklar dunyosiga ega. [1,10].

Markaziy Osiyoda flora tarkibini to'r tizimli xaritalashnig navbatdagi sifat bosqichiga olib chiqdi. Flora tarkibini to'r tizimli xaritalashning zamonaviy bosqichi mamlakat florasining kadastrini yuritish, milliy floraning yangi jiddlarini yaratish barobarida Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib flora turlarini to'r tizimli xaritalash tizimini amaliyatda qo'llashga o'tish bilan tarixga muhrlanadi. To'r tizimli xaritalash asosida olib borilayotgan yangi tadqiqotlar bir yo'la bir necha yo'nalishlarga qaratilgan izlanishlarni olib borish imkonini bermoqda. Xususan, flora turlarini xaritalash kadastr talablariga javob berishi barobarida kamyob turlarni aniqlash, IUCN mezonlari asosida baholash, alohida ahamiyatga ega botanik hududlarni aniqlash (Important Plant Areas), kamyob va yo'qolib borayotgan turlarni bioqlimiy modellashtirish va potensial areallarini aniqlash imkonini bermoqda. 2016 yildan laboratoriya bazasida O'zbekiston florasining yangi nashrlarini tayyorlash va chop etishga qaratilgan fundamental loyiha amalga oshirilmoqda. Loyihaning bosh maqsadi mamlakat xududida tarqalgan o'simlik turlarini taksonomik va nomenklaturaviy tahlilini amalgalash va oilalar kesimida ko'p jildli nashrlarini chop etishga qaratilgan. [2,9]

2023-yilgi Jahon yovvoyi tabiat kunining mavzusi “Yovvoyi tabiatni asrash bo'yicha hamkorlik” bo'ldi. U yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvonlarga e'tiborni qaratish, shuningdek, ularni himoya qilish bo'yicha yechim va ogohlilikni oshirishga qaratilgan.

Xulosa. Tadqiqotlar floristika, o'simliklar taksonomiysi va botanik geografiyasining klassik va zamonaviy metodlarini uyg'unligida olib borilmoqda. Loyihaning eng asosiy farqli jihatlari qatorida zamonaviy dala tadqiqotlari, yirik gerbariy fondlarida saqlanayotgan gerbariy namunalarini keng jalg' etilganligi, mayjud ma'lumotlarni tanqidiy tahlil etilayotganligi; ma'lumotlarni tizimlash va standartlashtirishni xalqaro talablar asosida amalgalash oshirilayotganligi; yagona axborot tizimini shakllantirilayotganligi va uni internet tarmog'i orqali maksimal darajada ochiqlanayotganligi hisoblanadi. 2016 yildan boshlab milliy floraning dastlabki besh jildi chop etildi. Ular asosan O'zbekiston florasidagi yirik o'simlik oilalarini qamrab oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000-2005yil ma'lumotlari
2. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika Instituti, O'zbekiston florasi laboratoriysi ma'lumotlari, 2022-2023 y.
3. "Gul va manzarali o'simliklar florasi va sistematikasi" fanidan amaliy mashg'ulotlarni Uslubiy qo'llanma, Namangan 2022y.
4. O'.Pratov, L .SHamsuvaliyeva, E.Sulaymonov, A.Axunov, K.Ibodov, V.Mahmudov " Morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika ". " Ta'lim nashriyoti ". Toshkent – 2010.
5. Yuldasheva, N. A. (2022, November). Shirinmiya o'simligi populyatsiyasining morfo-ekologik xususiyatlari va xalq xo'jaligidagi ahamiyati. in international conferences (Vol. 1, No. 10, pp. 230-234).
6. Юлдашева, Н. А. (2022). Ботаническая характеристика популяций солодки голой собранных с различных местообитания. Academic research in educational sciences, 3(11), 223-230.
7. Abdunazarovna, Y. N., Qizi, M. N. A., & Qizi, S. S. I. (2023). Topinambur (*helianthus us tuberosus*) o'simligining kimyoviy tarkibi va dorivorlik xususiyatlari. Ustozlar uchun, 19(1), 218-220.
8. Юлдашева, Н. А. (2022). Фармакологические свойства и применение солодки голой в народной медицине. Журнал Биологии и Экологии, 4(3).
9. Yuldasheva, N.A. (2023). Kuzgi bug'doy navlari o'rtasidagi korellyativ bog'lanishlar. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(20), 445-448.

УДК 595.7-15

**ВЛИЯНИЕ ТЕМПЕРАТУРЫ НА ПОВЕДЕНИЕ КЛОПОВ РОДА *PYRRHOCORIS*
FALLÉN, 1814**

C. Абдуллаева, базовый докторант, Хорезмская академия Маъмуна, Хива

**Л. Ганджаева, DSc, Хорезмская академия Маъмуна, Хива, Ургенчский государственный
университет, Ургенч**

Аннотация. Қандалалар экологик шароитга қараб ўзига хос хусусиятга эгадир. Лаборатория шароитида ҳарорат +18 дан + 40 ° С гача ўзгарганда ҳароратнинг қандалани